



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixologiyistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odijonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	

YOSH RAHBAR KADRLARNI LAVOZIMLARGA TAYINLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sobitov Otabek

Nizomiy nomidagi O'zMPU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, yosh mutaxassislarining liderlik salohiyati, qaror qabul qilish qobiliyati, emotsional intellekti, stressga chidamliligi va ijtimoiy moslashuv darajasi kabi omillarning boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida yosh rahbarlarni tanlash va tayinlashda psixologik diagnostika, kompetensiyaviy yondashuv hamda motivatsion omillarning roli asoslab berilgan. Shuningdek, samarali boshqaruvni ta'minlashda yosh kadrlarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yosh rahbar, kadrlar siyosati, psixologik xususiyatlar, liderlik, emotsional intellekt, motivatsiya, boshqaruv kompetensiyalari, stressga chidamlilik, qaror qabul qilish, psixologik diagnostika.

Abstract: This article analyzes the psychological characteristics of appointing young managerial personnel to leadership positions from a scientific and theoretical perspective. Particular attention is paid to factors such as leadership potential, decision-making ability, emotional intelligence, stress tolerance, and the level of social adaptation of young professionals. The study substantiates the role of psychological assessment, competency-based approaches, and motivational factors in the selection and appointment of young managers. Additionally, recommendations are proposed for developing the psychological readiness of young personnel to ensure effective management.

Key words: young managers, кадровая policy, psychological characteristics, leadership, emotional intelligence, motivation, managerial competencies, stress tolerance, decision-making, psychological assessment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности назначения молодых руководящих кадров на должности с научно-теоретической точки зрения. Особое внимание уделяется таким факторам, как лидерский потенциал, способность к принятию решений, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость и уровень социальной адаптации молодых специалистов. В ходе исследования обоснована роль психологической диагностики, компетентного подхода и мотивационных факторов при отборе и назначении молодых руководителей. Также предложены рекомендации по развитию психологической готовности молодых кадров для обеспечения эффективного управления.

Ключевые слова: молодые руководители, кадровая политика, психологические особенности, лидерство, эмоциональный интеллект, мотивация, управленческие компетенции, стрессоустойчивость, принятие решений, психологическая диагностика.

KIRISH

Jahon miqyosida jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan tashkilot rahbarlarining shaxsiy va kasbiy sifatlariga bog'liq ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik mexanizmlarini takomillash-tirish psixologiya sohasining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar ham mazkur masalaning muhimligini tasdiqlaydi. Jumladan, AQSHning Garvard universiteti qoshidagi Career Services markazi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra¹, ta'lim muassasalari rahbarlarining qariyb 79,8 foizi samarali boshqaruv faoliyatida muhim omil sifatida ijodiy kompetentlikni asosiy shaxsiy sifat deb hisoblashini ta'kidlagan. Shuningdek, Singapurdagi Nan'yan texnologiya universiteti tomonidan ta'lim tashkilotlari rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham shunga yaqin xulosalarni ko'rsatgan bo'lib, respondentlarning 65,5 foizi boshqaruv jarayonida shaxsiy fazilatlar va ijodkorlik qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Mazkur ilmiy dalillar tashkilot rahbarlarining shaxsiy sifatlarini, xususan, ijodkorlik,

1 www.wcfia.harvard.edu



tashabbuskorlik, kommunikativlik hamda innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni talab etishini ko'rsatadi. Shu bois ushbu yo'nalishda rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida yosh liderlarni tayyorlash va ularni rahbarlik lavozimlariga bosqichma-bosqich tayinlash jarayonida psixologik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda shaxsning liderlik salohiyatini aniqlash, strategik tafakkurini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish hamda jamoani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim omillar sifatida qaraladi. Shu bilan birga, yosh rahbarlarning professional faoliyatida psixologik tayyorgarlik, emotsional intellekt, ijtimoiy tolerantlik va konstruktiv muloqot kompetensiyalarining rivojlanganligi tashkilot samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois hozirgi davrda yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlash jarayonida ularning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, rahbarlik salohiyatini aniqlashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda psixologik baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur muammoni kompleks o'rganish boshqaruv psixologiyasi, tashkilot psixologiyasi hamda kadrlar menejmenti sohalarini kesishgan nuqtada yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", Qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda yetuk kadrlar sifatida shakllanishini ta'minlash yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillarni aniqlash, shuningdek, shaxsiy fazilatlari hamda tolerantlik darajasini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarning liderlik salohiyatini aniqlash, boshqaruv faoliyatiga tayyorligini baholash hamda ularni rahbarlik lavozimlariga tayinlash jarayonida psixologik omillarni hisobga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy boshqaruv tizimida rahbar shaxsining individual-psixologik xususiyatlari, kommunikativ kompetensiyasi, tolerantligi, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuvchanligi tashkilot faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois yosh kadrlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularning boshqaruv faoliyatiga mosligini aniqlash, liderlik salohiyatini baholash hamda rahbarlik lavozimlariga tayinlash jarayonida psixologik diagnostika va tahlil mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik mexanizmlarini chuqur tadqiq etish, ularning boshqaruv faoliyatiga tayyorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh rahbar kadrlarni tayyorlash, ularni boshqaruv faoliyatiga moslashtirish hamda lavozimlarga tayinlash jarayonining psixologik jihatlarini o'rganish masalasi psixologiya va boshqaruv fanlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo turli mamlakatlar olimlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilib, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari, boshqaruv kompetensiyalari hamda tashkilot samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

O'zbekiston psixolog olimlari F.A. Akramova, Y.M. Asadov, T.M. Adizova, B.S. Abdullayeva, A.M. Jabborov, O.Ch. Kuziyev, N.Z. Jumayev, M.A. Jabborova, V.M. Karimova, D. Narziqulova, Z.T. Nishonova, B.R. Qodirov, E.G'. G'oziyev va boshqa tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida boshqaruv psixologiyasi, rahbar kadrlar kompetensiyasi, ta'lim tizimida innovatsion va strategik menejmentni shakllantirish, shuningdek, rahbar shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida boshqaruv faoliyatida shaxs omilining roli, rahbar shaxsining professional va ijtimoiy-psixologik sifatlarini rivojlantirish masalalari muhim ilmiy yo'nalish sifatida yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Marlou-Krouning "Shaxsning axloqiy-etik mas'uliyat sifatlarini o'rganish" so'rovnomasi, E.D.Lyusinning "Emotsional intellekt" so'rovnomasi, G.Yu.Ayzenkning "Ektroversiya-introversiya tipini aniqlash" so'rovnomalari hamda empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon ta'lim amaliyotida rahbar kadrlarni tayyorlash va ularni boshqaruv lavozimlariga tayinlash masalalariga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'plab mamlakatlarda ushbu jarayon umumiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida tarixiy, madaniy va milliy an'analar hamda iqtisodiy sharoitlar rahbar kadrlarni tayyorlash va ularni lavozimlarga tayinlash jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yosh rahbar kadrlarni tanlash va ularning boshqaruv faoliyatiga tayyorligini baholashda psixologik omillarni hisobga olish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mehnat motivatsiyasi nazariyalarining eng dastlabkilaridan biri F.U. Teylorning mehnat nazariyasi hisoblanadi (XX asrning birinchi o'n yilligi). Ushbu nazariya ko'pincha "ilk ilmiy boshqaruv nazariyasi" deb ham ataladi. F.U. Teylor psixolog ham, sotsiolog ham bo'lmagan bo'lsa-da, u iqtisodiy rag'batlantirishga asoslanib, mehnat unumdorligini oshirishda inson omilining rolini tahlil qilgan.

Teylor ishchi xulq-atvorining motivatsiyasi haqida to'liq psixologik tushuncha bermagan bo'lsa-da, u faqat bitta asosiy rag'batni - moddiy (pul) rag'batini muhim deb hisoblagan va uni inson uchun eng tabiiy motiv sifatida talqin qilgan. Uning boshqaruv tizimining asosiy tamoyili - alohida individual ishchiga murojaat qilish edi.

XVIII–XIX asr siyosiy iqtisodchilari g'oyalari tayangan holda, F. Teylor keyinchalik "iqtisodiy inson konsepsiyasi" deb atalgan nazariy yondashuvni ishlab chiqdi. Uning fikricha, ilmiy boshqaruv sharoitida e'tibor jamoaga emas, balki alohida ishchiga qaratilishi kerak. Shu sababli u jamoaviy rag'batlantirish shakllarini rad etgan.

Teylor individual differensial ish haqi tizimini qo'llagan bo'lib, bu tizim kuchli va samarali ishchilarni rag'batlantirgan, ammo o'rtacha va sust ishchilarni chetga chiqarib qo'ygan. Muhandis sifatida u psixolog va fiziologlar tomonidan bildirilgan tanqidlarga - ya'ni mehnat jarayonida inson organizmi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligiga - e'tibor bermagan.

Teylorning qarashlariga ko'ra, ishchi aslida ishlayotgan mashinaning bir qo'shimchasi sifatida talqin qilingan. U ishchini faqat ijrochi sifatida ko'rib, mehnatni qat'iy tarzda taqsimlash tarafdori bo'lgan. Mehnatdan qoniqish, ijodkorlik, hissiyotlar kabi omillar uning nazariyasida deyarli hisobga olinmagan.

Shuningdek, u mehnatni qat'iy taqsimlashning psixologik oqibatlarini ham e'tibordan chetda qoldirgan. F.U. Teylor ishchilarning mehnat faolligini oshirishda psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning rolini deyarli inkor etgan. Shu sababli Teylor nazariyasi ko'pincha mehnat motivatsiyasining ortodoks (klassik) nazariyasi sifatida baholanadi.

Shunga qaramay, ushbu nazariyani butunlay inkor etib bo'lmaydi, chunki ko'plab tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, uning ayrim tamoyillari hozirgi kunda ham ayrim g'arb tipidagi korxonalarda qo'llanib kelmoqda.

Faoliyat tushunchasi falsafa va psixologiya fanlarida chuqur nazariy asosga ega bo'lib, uning ildizlari I. Kant va I. Fikse kabi faylasuflar qarashlarida namoyon bo'ladi. Keyinchalik faoliyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi psixologiya fanida S.L. Rubinshteyn hamda A.N. Leontev tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ularning qarashlariga ko'ra, faoliyat inson xulq-atvorining ongli va maqsadga yo'naltirilgan shakli bo'lib, u shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari va ijtimoiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. A.N. Leontev tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasida inson faoliyatining tuzilmasi, uning motivlari, maqsadlari hamda amalga oshirish jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Mazkur nazariy yondashuvlar rahbarlik faoliyatining psixologik mohiyatini tushinishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlash jarayonini psixologik jihatdan tahlil qilish, ularning boshqaruv faoliyatiga tayyorligini belgilovchi individual-psixologik xususiyatlarni aniqlash hamda ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan psixologik mexanizmlarni takomillashtirish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv psixologiyasida rahbar shaxsining individual-psixologik xususiyatlari tashkilot faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Rahbar shaxsi nafaqat boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi subyekt, balki jamoa faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, motivatsiya jarayonlarini boshqaruvchi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois rahbarlik faoliyatini o'rganishda shaxsning psixologik sifatleri, liderlik salohiyati va kommunikativ kompetensiyasi muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Psixologiya va menejment sohasidagi ilmiy tadqiqotlar rahbar shaxsining bir qator asosiy psixologik xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. Ularga strategik tafakkur, tashabbuskorlik, kommunikativlik, mas'uliyat hissi, emotsional barqarorlik, motivatsion yo'nalish hamda ijtimoiy moslashuvchanlik kiradi. Bu sifatlar rahbarning jamoa bilan samarali muloqot o'rnatishi, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi va tashkilot maqsadlariga erishishda jamoani safarbar eta olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, rahbar shaxsida rivojlangan refleksiya va emotsional intellekt jamoa ichidagi psixologik muhitni barqarorlashtirish hamda nizolarni konstruktiv hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Rahbarlik fenomenini ilmiy jihatdan izohlash maqsadida turli davrlarda bir qator liderlik nazariyalari ishlab chiqilgan. XX asr boshlarida shakllangan "buyuk shaxslar nazariyasi" rahbarlikni shaxsning tug'ma fazilatlarini bilan bog'laydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, liderlik qobiliyati ayrim insonlarga xos bo'lgan tabiiy sifatlar majmui sifatida qaraladi. Keyinchalik bu yondashuv rivojlantirilib, xususiyatlar nazariyasi shakllandi. Mazkur nazariyada rahbar shaxsining muvaffaqiyatini belgilovchi intellektual salohiyat, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch, kommunikativlik kabi psixologik sifatlar asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi.

1960–1970-yillarda rahbarlikni o'rganishda xulq-atvor nazariyalari keng rivojlandi. Bu yondashuvda rahbarlik samaradorligi rahbarning muayyan xulqiy uslublari bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Masalan, rahbarning vazifaga yo'naltirilgan yoki insoniy munosabatlarga yo'naltirilgan boshqaruv uslubi jamoa samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, rahbarlikni faqat shaxsiy sifatlar yoki xulq bilan izohlash yetarli emasligi aniqlangach, vaziyatli liderlik nazariyalari shakllandi. Bu nazariyaga ko'ra, samarali rahbarlik muayyan vaziyat, jamoa xususiyatlari va tashkiliy sharoitlarga moslashish qobiliyati bilan belgilanadi.

Zamonaviy boshqaruv psixologiyasida transformatsion liderlik nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko'ra, lider jamoa a'zolarini umumiy maqsad sari ruhlantira olishi, ularda yuqori motivatsiya va ijodiy faollikni shakllantira olishi bilan ajralib turadi. Transformatsion liderlar jamoa a'zolarining shaxsiy rivojlantirishiga ko'maklashadi, ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi hamda tashkilotda innovatsion muhitni shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda emotsional intellekt, ijtimoiy kompetensiya va kommunikativ madaniyat rahbarlik samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omillar sifatida qayd etilmoqda.

Shunday qilib, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari va liderlik nazariyalari boshqaruv jarayonining ilmiy asoslarini tashkil etadi. Rahbarlik faoliyatida shaxsning individual-psixologik sifatleri, vaziyatga moslashuvchanligi hamda jamoani maqsad sari yo'naltira olish qobiliyati muhim omil hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar yosh rahbar kadrlarni tanlash, baholash va lavozimlarga tayinlash jarayonida psixologik mexanizmlarni ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kasbiy faoliyat shaxsdan muayyan professional sifatlar, amaliy ko'nikmalar hamda kompetensiyalarning mavjudligini talab etadi. Ayniqsa boshqaruv faoliyatida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, kommunikativ qobiliyatlari, strategik tafakkuri, mas'uliyat hissi va liderlik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy boshqaruv tizimida rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi alohida ilmiy e'tibor talab qiladigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Rahbar faoliyatini baholashda faqat alohida psixik jarayonlar - tafakkur, xotira, diqqat kabi kognitiv ko'rsatkichlar yoki ayrim shaxsiy sifatlar - masalan, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari rahbar shaxsini tizimli va kompleks nuqtai nazardan baholash zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayonda rahbarning strategik fikrlash qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuvchanligi, tashkiliy qobiliyati hamda qaror qabul qilish jarayonidagi psixologik barqarorligi muhim omillar sifatida qaraladi.

Boshqaruv faoliyati shaxsning nafaqat mavjud kasbiy salohiyatini, balki uning rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Shu sababli rahbar kadrlarni tanlash va lavozimlarga tayinlash jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, motivatsion yo'nalishi, liderlik salohiyati hamda jamoa bilan samarali hamkorlik qila olish qobiliyati kompleks baholanishi zarur. Mazkur yondashuv rahbar shaxsini rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti sifatida ko'rib chiqishga asoslanadi.

Shu nuqtai nazardan, yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyasi, individual-psixologik xususiyatlari hamda boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish qobiliyatlarini chuqur o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa rahbar kadrlarni tanlash va lavozimlarga tayinlash jarayonining psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Rahbarlik faoliyati samaradorligini tahlil qilishda tashkilot rahbari xodimlar mehnatini baholashda bir qator muhim psixologik va tashkiliy mezonlarga tayanishi mumkin. Avvalo, xodimning motivatsion sohasining holati, ya'ni uning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi, tashabbuskorligi va o'z mehnatida shaxsiy ishtirokining darajasi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Boshqaruv faoliyatida insonparvar munosabatlarning mavjudligi ham muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va konstruktiv muloqotning shakllanishi tashkilotda sog'lom psixologik muhitni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xodimlar faoliyatining natijadorligi, ularning kasbiy mahorati hamda yangi g'oya va yondashuvlarni ilgari surish qobiliyati ham rahbar tomonidan baholanadigan muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Bundan tashqari, kasbiy rivojlanishga ochiqlik, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga tayyorlik ham xodim faoliyatini baholashda muhim mezon sifatida qaraladi. Chunki zamonaviy boshqaruv sharoitida uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion fikrlash va o'z faoliyatini takomillashtirib borish rahbar va xodimlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlash jarayoni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki ularning psixologik xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir. Xususan, liderlik salohiyati, emotsional intellekt darajasi, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati samarali boshqaruvning asosiy omillari hisoblanadi. Yosh kadrlarni tanlash va lavozimga tayinlashda psixologik diagnostika vositalaridan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yosh rahbarlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlash jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini kompleks baholash tizimini joriy etish, liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz trening dasturlarini tashkil etish, emotsional intellekt hamda stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish, mentorlik va kouching mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek kadrlar siyosatida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni// "Ma'rifat" gazetasi. 2016 yil 17 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Kadrlar siyosati va inson resurslarini boshqarish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2023.
5. OECD. Leadership for a High Performing Civil Service. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. World Bank. Improving Public Sector Performance Through Innovation and Inter-Agency Coordination. – Washington DC, 2020.
7. McKinsey & Company. The State of Organizations 2023. – McKinsey Global Institute, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.